CHINGIZ AYTMATOVNING “SARVQOMAT DILBARIM” QISSASIDA QO’LLANGAN METAFORALARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Shaxnoza Xo’janiyazova,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsent v.b
filologiya fanlari doktori;
Xusanova Diyora Tolibovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti 1-kurs talabasi;

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli adib Chingiz Aytmatovning "Sarvqomat dilbarim" qissasidagi metaforalarning lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada metaforaning nafaqat uslubiy vosita, balki muallifning estetik konsepsiyasi va qahramonlar ruhiy holatini ochib beruvchi kognitiv-semantik birlik sifatidagi o‘rnini belgilash bilan izohlanadi. Shuningdek, asar qahramonlarining ichki kechinmalari, tabiat tasviri va insoniy munosabatlarni ifodalashda qo‘llangan metaforik ko‘chimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlillar natijasida metaforaning badiiy matn ekspressivligini oshirishdagi roli va muallifning individual uslubiga xos lingvopoetik jihatlar xulosalangan.

Kalit so’zlar: *tasviriy vositalar, ko’chim,* denotat, *belgi, semema.*

Аннотация:

В данной статье раскрываются особенности метафор, использованных в повести известного писателя Чингиза Айтматова «Тополёк мой в красной косынке» (Sarvqomat dilbarim). Метафора рассматривается не просто как стилистический приём, а как важный элемент, раскрывающий эстетическую концепцию автора и психологическое состояние героев. Особое значение также уделяется метафорическим переносам, использованным для выражения внутреннего мира персонажей, описания природы и человеческих взаимоотношений.

Ключевые слова:

Изобразительно-выразительные средства, переносное значение (троп), денотат, знак, семема, сема, метафорический перенос.

Abstract:

This article highlights the specific features of metaphors used in the famous writer Chingiz Aytmatov's novella "My Poplar in a Red Scarf" (Sarvqomat dilbarim). It examines the role of metaphor not merely as a stylistic device, but as a key element that reveals the author's aesthetic concept and the psychological state of the characters. Furthermore, particular significance is placed on the metaphorical shifts used to express the characters' inner experiences, descriptions of nature, and human relationships.

Keywords:

Figurative language, metaphorical shift (trope), denotatum, sign, sememe, seme, transfer of meaning.

Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining ko'p qo'llanadigan turlaridan biri hisoblanadi[1]. Biron-bir tilning boyligi haqida gapirilganda va unda mavjud bo'lgan shu tilni jozibali, obrazli qilib ko'rsatadigan turli ornomental stilistik vositalar ko'zda tutiladi[2]. O'xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi, ko'chimning sodda turidir[3]. O'zbek tilshunosligida metafora bo'yicha T.Aliqulov, Z.Tohirov, T.Rasulov, O.Azizov, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, R.Qo'ng'urov, M.Yo'ldoshev, N.Mahmudov, B.Umurqulov, M.Mirtojiyev, D.Xudayberganova, S.Xajiyev va

[1] Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент, Mumtoz so'z. –Б. 94.

[2] Juraqobilova H. O'zbek va fransuz tillarida metafora hodisasining o'rganilishi.O'zbekiston til va madaniyat.-Toshkent. 2023. Vol. 3 (2). –B. 31.

[3] Холмурадова М. «Қутадғу билиг» асарида ўхшатишларнинг қўлланилиши. Лингвист. III. –Тошкент, Akademnashr. –Б. 120.

boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. Tilshunos oliim M.Mirtojiyev o'zbek tilidagi metaforalar ko'chma ma'no hosil etgan ob'yektlarning o'xshatilish holatiga ko'ra oddiy metafora, personifikasiya va sinesteziya kabi turlarini ajratgan[4]. Metafora o'xshatishning bir turi bo'lib, o'xshatishdan tubandagicha farqlanadi: a) o'xshatishda qiyoslanuvchi narsa yoki hodisa ifodalanayotgan so'z to'g'ri ma'noda qo'llaniladi, metaforada esa ko'chma ma'noga ega bo'ladi; b) o'xshatish to'rt komponentdan– o'xshatish obyekti, o'xshatma belgi va o'xshatuvchi obraz va o'xshatish vositasidan tashkil topadi, metafora esa bir komponentdan-o'xshatilgan narsadangina iborat bo'ladi[5].

Ko'chimning nutqda faol qo'llanadigan turlaridan biri metafora sanaladi. U tilga jilo beribgina qolmay, tuyg'ularimizning eng nozik qirralarini ifodalashga yordam beradi. Chingiz Aytmatov "Sarvqomat dilbarim" asarida ko'chimning bir qancha turlariga to'xtalgan, ammo ularning ichidan metaforadan ustalik bilan foydalangan. Hatto, asar nomiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda adib yorni "sarvqomat"- deya "sarv daraxtiga" qiyoslamoqda. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda sarv - "qaddi-qomati, bo'y-basti kelishgan, xushqomat",-deya izohlanadi. Adibning qissasida qo'llangan metaforalarni quyidagi misollar yordamida tahlilga tortamiz:

Ancha o'zini oldirib qo'ygan, peshonasidagi uch qator ajin yanada ichkariroq botib kirgan, chimirilgan qoshlari esa yuziga ***g'amgin soya*** *solib turgandek edi (3-b).*

Bu o'rinda **"soya solmoq"** fe'lining denotativ shakli – biror jismning nur yo'lini to'sishi natijasida qorong'ilik hosil qilishi bo'lsa, **"g'amgin soya solmoq"** shakli konnotativ (ko'chma) hisoblanadi. Solmoq (soya solmoq) fe'lining semalari:

1) biror narsa ichiga yoki ustiga joylamoq, qo'ymoq, tashlamoq;
2) o'rnatmoq, qo'ymoq;

[4] Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи//Ўзбек тили ва адабиёти. 1973. №4. –Б. 34-37.

[5] Умуркулов Б. Бадиий насрда метафора// НамДУ илмий ахборотномаси. – Наманган, 2020. № 3. – Б. 355.

3) o‘tirg‘izmoq;

4) qo‘shmoq; quymoq;

5) bermoq, tashlamoq (molga beriladigan ovqat haqida);

6) biror holatga tushirmoq yoki biror holatni yuzaga keltirmoq, paydo qilmoq;

7) biror tartib, yo‘nalish, o‘lchov, vaziyat va sh.k. ga tushirmoq; moslashtirmoq;

8) yopishtirib tikmoq, ulamoq, to‘shamoq, yozmoq;

9) to‘shamoq, yotqizmoq;

10) ro‘para qilib, qaratib qo‘ymoq, tutmoq;

11) quritish, achitish, pishirish uchun qo‘ymoq;

12) to‘lov majburiyatini yuklamoq, belgilamoq;

13) biror kimsa yoki ko‘pchilik muhokamasiga qo‘ymoq, hukmiga topshirmoq, havola qilmoq;

14) biror narsa yoki kimsaga yo‘naltirmoq, qo‘ymoq;

15) biror ishga, harakatga tushirmoq, yo‘llamoq, tashlamoq;

16) yo’llab ishga tushirmoq;

17) arqon, zanjir kabi narsalar urib, tashlab band etmoq, bog‘lamoq;

18) qismlarini bir-biriga tushirmoq, o‘rniga qo‘ymoq;

19) barpo qilmoq, qurmoq, yasamoq;

20) hozirlamoq, tayyorlamoq, qurmoq;

21) zarb bilan urmoq, tushirmoq;

22) chizmoq, ishlamoq, yasamoq.

*Moviy to’lqinlarining va **oltin qirg’oq**laring bilan birga qo’shib seni o’zim bilan olib ketardim – u, ammo sevgilimning sevgisini olib keta olmaganimdek, seni ham olib ketish qo’limdan kelmaydi.*

Bu gapda o‘rin-joyni ifodalash mazmunidagi metaforik ko‘chimdan foydalanilgan. *Qirg’oq* – metafora hosil qiluvchi so‘z hisoblansa, ***oltin*** –

metaforalanayotgan leksema. Ko‘chim qaysi sema asosida shakllanganini quyidagicha aniqlaymiz:

1) suv havzalari va oqar suvlar bilan quruqlik tutashgan kambar yer; lab, bo‘y, yoqa; sohil;

2) yoyiq narsalarning, yo‘l yoki maydonning cheti; zih, qir;

3) chuqur narsalarning yuqori chegarasi, cheti, yoqasi.

Keltirilgan semalardan ko‘chim asosi sifatida 3-semani olishimiz mumkin, chunki bu semada o‘rin mazmuni ifodalangan. *Oltin qirg’oq*, ya’ni qirg’oqning oltinga qiyoslayotganini kuzatishimiz mumkin.

*Uzoqdagi **tog‘ etaklarida** shamolda nuragan devorlar va yaproqlari to‘kilib ship-shiydam bo‘lib qolgan ovul bog‘lari elas-elas qorayib turardi.*

Bu gapda narsa-buyumni ifodalash mazmunidagi metaforik ko‘chimdan foydalanilgan. *Etak* – metafora hosil qiluvchi so‘z hisoblansa, *tog‘* – metaforalanayotgan leksema. “O’zbek tilining izohli lug’ati”dan “etak” leksemasini quyidagicha izohlash mumkin (2, 72):

1) kiyimning pastki, osilib tushib turadigan keng qismi;

2) ko‘chma ba’zi narsalarnnig etakka o‘xshash osilgan pastki qismi;

3) matodan paxta terish uchun maxsus tikilgan, bir tomoni bo‘yinga osib, bir tomoni belga bog‘lab olinadigan buyum;

4) tog‘, adir, balandliklarning pastki qismi; pastki qismidagi joy, maydon;

5) ba’zi narsalarning, sathning cheti, quyi tomoni, oxirgi qismi;

6) ariq, daryo vaqt e’tibori bilan oxirgi qism;

7) vaqt e’tibori bilan oxirgi qism, oxir, so‘ng.

Bu o‘rinda ko‘chim asosi sifatida 4-semani ko‘rsatish mumkin. Chunki yuqorida keltiirlgan izohlardan metaforalashgan ko‘chimning ma’nosi 4-sema orqali yuzaga kelgan, ya’ni “tog’ning pastki etak; pastki qismidagi joy” mazmunini ifodalayapti.

*Uning **iliq tafti** va go‘daklarga xos mayin hidini go‘yo butun umrga singdirib olgandayman (44-b).*

Ushbu misoldagi metaforik ko‘chim mavhum tushunchani ifodalash uchun qo‘llangan. *Taft* leksemasi metaforani shakllantirgan, *iliq* – metaforalanayotgan so‘z. Ko‘chim *taft* leksemasining hozirgi kunday qaysi semalarda qo’llanishini aniqlaymiz (O’TIL, 5, 21):

1) issiqlik manbayi yoki qizib turgan narsadan urayotgan issiq harorat;
2) issiqlikdan ko‘tarilayotgan bug‘simon narsa; hovur;
3) shaxs yoki narsaning harorat darajasi holati; temperatura;
4) ijobiy ta’sirli, hayotbaxsh harorat, o‘t;
5) kishi ruhidagi yoqimsiz holat, g‘ubor;
6) o‘zini yuqori olish, manmanlik kayfiyati.

Iliq сўзи narsa- buyumning белги-хусусиятни ифодаловчи sifat so’z turkumi. *Iliq* leksemasi denotativ ma’noda “narsaning fizik holati ya’ni haroratiga ko’ra belgisi”ni bildiradi. ***Илиқ баҳор** кунлари эди, болалар доим очиқ далада ўйнаб юришарди (55-b).* Konnatativ ma’noda asardagi “iliq taft” birikmasi insoniy tuyg’uni xususiyatini ifodalaydi. Shuningdek *iliq his, iliq nafas* kabi metaforik birikmalar ham asar tarkibida uchrashini kuzatishimiz mumkin: *Иккимиз ҳам **илиқ ҳислар** қучоғига чўмиб борардик. Елкаларимиз тўқнашиб, кафтимиз ручка дастасини айлантираверіб қизиб кетди(53-b). Вир-биримизнинг юзимизга **илиқ нафасимиз** уриларди, иккаламиз ҳам бир ишни бажарар эдик, эҳтимол, ўй-хаёлларимиз ҳам бир ердан чиқар (53-b).*

Quyida keltirilgan misoldan kiyimning bir qismi bo’lgan “yoqa” so’zining o’z va ko’chma ma’noda qo’llanganini ko’rish mumkin: *Аммо қандайдир сўлоқмондай йигит яшик устидан тушиб, қўлқопини ёнидаги шеригига берди-да, олдимга яқин келиб, **ёқамдан ушлаб**, ўзи томон тортди (26-b). Биринчи навбатда **йўл ёқа**сидаги магазиндан Асалга унча-мунча кийим-кечак олдик (18-b).* Demak, “yoqa”

so’zi birinchi gapda “inson kiyimini yoqasi” nazarda tutilgan bo’lsa, ikkinchi gapda “chekka, chet, yon” degan ma’nolarni ifodalamoqda.

Metaforik asosda ma’no ko’chishida u nutqning go’zalligini, ta’sirchanligini va ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababdan uning qo’llanish doirasi keng bo’lib, u ilmiy va badiiy uslublarda keng doirada ishlatiladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, metafora – tilning “sehrli ko’zgusi”dir. Metafora tilning o’ziga xos xususiyati, majozlilik va yangi ma’no hosil qilishda muhim ro’l o’ynaydi hamda u tilshunoslik nazariyasida katta o’rin tutadi. Maqolada ko’rib chiqilgan badiiy qissada metafora matnning mazmuniy qatlamini kuchaytiradi, personajlar ichki olamini ochib beradi va syujetni rivojlantirishga xizmat qiladi. Metafora so’zlarga uslubiy bo’yoqdorlik bag’ishlaydi, obrazli tasavvur yaratadi va matnning estetik qiymatini oshiradi. N.Maxmudov esa metaforani dunyoni bilishning eng qudratli qurollaridan biri deb ta’kidlaydi. Shu sababdan metafora oddiy so’zlarga jon baxsh etadi va nutqimizning ta’sirchanligini oshiradi. Yozuvchi va shoirlar metafora yordamida kitobxonning qalbiga qisqa yo’l topadilar. Metaforasiz til quruq va jozibasiz bo’lib, u muloqotimizga rang va chuqur ma’no bag’shlovchi asosiy unsurligicha qoladi. Demak, maqolada ko’rib chiqilganidek, metafora nafaqat tilning lug’aviy boyligini oshiruvchi, balki badiiy matnlarda chuqur mazmun va his-tuyg’ularni ifodalovchi, o’quvchiga kuchli ta’sir etuvchi vositadir. Uning tilshunoslikdagi nazariy asoslari va uslubiy qo’llanishi matnning estetik qiymatini yanada oshirib, uni ma’naviy jihatdan boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Chingiz Aytmatov “Sarvqomat qilbarim”. Qissa. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti . 2018.

2.Xo’janiyozova Sh. Alisher Navoiyning munoqib asarlari leksikasi. Monografiya.Toshkent: Bookmany print nashriyoti. 2023. – B.117-121.

3.Ziyotova S. Mexrobdan chayon asari leksikasi. Monografiya. Toshkent: Bookmany print nashriyoti.2023 . -B.104-116.

4.Maxmaraimova Sh. O'zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi. Samarqand. 2020.

5.Mahkamov N. va Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent. 2013.

6.Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. Toshkent: Mumtoz so'z. 2010.

7.Yo'doshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili. Toshkent. 2008.

8.Qo'ng'irov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent. 1977.